

Ilmiy hamkorlik kengaymoqda

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida Rossiyaning "Salyus" kompaniyasi hamda Rossiya Fanlar akademiyasining Xavfsizlik muammolari o'rganish markazi vakillari bilan davra suhbatini bo'lib o'tdi. Davra suhbatida 2018-yilning dekabr oyida Rossiyaning "Salyus" kompaniyasi hamda Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi ta'sischi sifatida tashkil etilgan "Salyus-Navoi" qo'shma korxonasi ta'sischi sifatida Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ham o'zining ilmiy-tadqiqot va intellektual salohiyati bilan 24% ulush bilan qo'shilishi taklifi muhokama qilindi va ma'qullandi.



Muhokama natijasida O'zbekiston-Rossiya "Salyus-Navoi" qo'shma korxonasi Nizom jamg'armasidagi O'zbekiston tomonidagi ta'sischi ulushi 49% tashkil etishi va bu ulush olimlarimizning yangi ishlanmalari, ilmiy-tadqiqotlari va intellektual salohiyati sifatida kiritilishi e'tirof etildi.